

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Inoyatova	
Oilaviy munosabatlarda shaxsnинг milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar.....	207
U.Qurbanov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	212
G.Ravshanova	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari	216
O.O'rroqova	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	219
F.Rabbimova	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar	222
D.Axmedova	
Ayollar tadbirdorligini rivojlantirishning asoslari	226
N.Sabirov	
Fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari	231
Sh.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsi anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	236
I.M.Arzmamatova	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari	240
A.A.Tojaliyev	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti	245
A.A.Abdumalikov	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari	249
O'.X.Rajabov	
"Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati	253

SIYOSAT

M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish	258
A.Xudayberdiyev	
Globallashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	263
O.Majidov	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari	268
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	273
Sultonov Javohir, Mamajonov Farhod	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi	279
J.Sh.Museybizada	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil	285

ТАРИХ

I.G'ulomov	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	292
U.O'sarov	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida Sholi yetishtirish va uning ahvoli	297
F.Utayeva, B.Safarov	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati	303
A.Usmonov	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar	308
A.Yarkulov	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari	314
B.Usmanov	
Mustaqillik yillarda suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	320

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

PECULIARITIES OF IMPROVING THE MANAGEMENT SYSTEM IN INTERNAL AFFAIRS BODIES

Jo'rarev Muhiddin Utkurovich¹

¹**Jo'rarev Muhiddin Utkurovich¹**

– Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish, ularning quyi bo'g'inlarini aholiga yanada yaqinlashtirgan holda mustahkamlash, barcha darajadagi tuzilmalarning vazifalari va funksiyalarini aniq belgilash, zamonaviy xavf-xatarlarni hisobga olgan holda kuch va vositalarni oqilona taqsimlashga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Maqolada ichki ishlar organlari boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari, huquqiy asoslari, boshqaruv tizimini axborot bilan ta'minlash, boshqaruv tizimini moddiy-texnik ta'minlash, boshqaruvni takomillashtirishning ustuvor yo'naliislari, tizimga innovatsion loyihalarni joriy etish kabi masalalar, shuningdek boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ilgari surilgan.

Аннотация

Необходима комплексная работа, направленная на совершенствование системы органов внутренних дел в новом Узбекистане, усиление их низовых звеньев ближе к населению, четкое определение задач и функций структур всех уровней, рациональное распределение сил и средств с учетом современных рисков реализуется. В статье рассмотрены особенности системы управления органов внутренних дел, правовые основы, информационное обеспечение системы управления, материально-техническое обеспечение системы управления, приоритетные направления совершенствования управления, внедрение в систему инновационных проектов, а также были выдвинуты такие вопросы, как предложения по улучшению системы управления.

Abstract

Comprehensive work aimed at improving the system of internal affairs bodies in new Uzbekistan, strengthening their lower links closer to the population, clearly defining the tasks and functions of structures at all levels, rational distribution of forces and means taking into account modern risks is being implemented. In the article, the specific features of the management system of internal affairs bodies, legal bases, information provision of the management system, material and technical support of the management system, priority areas of management improvement, introduction of innovative projects into the system, as well as issues such as the management system suggestions for improvement have been put forward.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, boshqaruv, tizim, axborot, innovatsiya, huquqbazarlik, nazorat, vazifa, funksiya, element, printsip, omillar, kriminogen vaziyat, tezkor vaziyat.

Ключевые слова: органы внутренних дел, управление, система, информация, нововведение, правонарушение, контроль, задача, функция, элемент, принцип, факторы, криминогенная обстановка, оперативная обстановка.

Key words: internal affairs bodies, management, system, information, innovation, offense, control, task, function, element, principle, factors, criminogenic situation, operational situation.

Mamlakatimizda ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish, ularning quyi bo'g'inlarini aholiga yanada yaqinlashtirgan holda mustahkamlash, barcha darajadagi tuzilmalarning vazifalari va funksiyalarini aniq belgilash, zamonaviy xavf-xatarlarni hisobga olgan holda kuch va vositalarni oqilona taqsimlashga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 avgustdag'i "Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishslashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3919-son Qarorida ichki ishlar organlarining kundalik faoliyatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo'naliislari belgilab berildi:

– birinchidan, vujudga kelayotgan real tezkor va kriminogen vaziyatni hisobga olgan holda ichki ishlar organlarining kuch va vositalarini muvofiqlashtirgan tarzda taqsimlash va boshqarishning samarali mexanizmini joriy etish;

– *ikkinchidan*, jamoat tartibini saqlash, huququzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida tahliliy ishlarni aniqlanayotgan amaliy muammolarni tizimli tahlil qilish va kriminogen vaziyatni prognozlashga yo'naltirish maqsadida tubdan qayta ko'rib chiqish;

– *uchinchidan*, lavozimlarni yuqori ma'nnaviy-axloqiy, ishchanlik va kasbiy sifatlarga ega nomzodlar bilan jamlashni nazarda tutgan holda, ichki ishlarni organlariga xizmatga qabul qilishning sifat jihatdan yangi, soddalashtirilgan tartibini o'rnatish;

– *to'rtinchidan*, shaxsiy tarkib bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishning samarali tizimini joriy etish, shu jumladan ilmiy-psixologik uslublarni maqsadli qo'llash orqali ularning xizmat va oilaviy-maishiyy muammolarini o'rganish;

– *beshinchidan*, qonuniylikni so'zsiz ta'minlash, xizmat intizomiga qat'iy rioxalari qilish va xodimlar tomonidan sodir etilgan huququzarliklarni o'z vaqtida aniqlashga qaratilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ta'sirchan idoraviy nazoratni tashkil qilish;

– *oltinchidan*, ish yuritish mexanizmi va hujjatlar aylanishi tartibini takomillashtirish, ichki ishlarni organlari tizimining barcha bo'g'inlarida normativ-huquqiy hujjatlarning o'z vaqtida, bir xilda va to'liq bajarilishini ta'minlash.

Adabiyotlarda ichki ishlarni organlarining boshqaruv tizimi turli rakurslardan o'rganilgan. Xususan, IIOning boshqaruv tizimini O'.X.Muxamedov ichki ishlarni organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning natijalari nuqtai nazaridan¹⁷, M.Z. Ziyodullayev IIOning tayanch punktlarini boshqarish misolida¹⁸, S.I.Adinyayev IIOning huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida tutgan o'rni nuqtai nazaridan¹⁹, T.S.Valiulin ma'muriy-huquqiy jihatdan¹, V.V.Pavlovskiy huquq-tartibotni saqlashda politiya (militsiya)ning jamiyat bilan hamkorligi nuqtai nazaridan²⁰, U.I. Abdullayev IIOdagi ichki tizimli nazorat nuqtai nazaridan²¹, V.S.Byalt ichki ishlarni organi xodimning intizomiy javobgarligi nuqtai nazaridan²², YE.V.Shevlova IIO rahbarlari faoliyatini baholash samaradorligi nuqtai nazaridan²³, R.R.Aliullova IIO boshqaruv mexanizmi nuqtai nazaridan²⁴, Y.A.Sluchevskaya IIoda huquqiy nazoratni tashkil etish va amalga oshirish nuqtai nazaridan²⁵, V.Y.Kasyan IIOning huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etishni baholash nuqtai nazaridan²⁶, YE.A.Spitsina IIOning kadrlar zaxirasini shakllantirishni huquqiy ta'minlash nuqtai nazaridan, V.V.Dralov IIoda boshqaruvni huquqiy ta'minlash nuqtai nazaridan²⁷, V.V. Kazakov IIO xodimlarini boshqarish nuqtai nazaridan o'rganishgan²⁸.

IIO boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilganda mazkur o'ziga xosliklarni belgilovchi omillarni aniqlashtirish olish lozim. Umuman olganda IIO boshqaruv tizimi mohiyat e'tiboriga ko'ra, dinamik xarakterga egaligi, zimmasiga yuklangan ijtimoiy funksiyalarning xilma-xilligi, xususiyatining keng qamroviligi, harakat dialektikasining jo'shqinligi sababli bu borada yagona qarashlar mavjud emas. Fikrimizcha, IIO boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi tasnifli tahlil orqali oydinlashtirish mumkin:

¹⁷ Muxamedov O'.X. O'zbekistonda xalqparvar ichki ishlarni yaratish istiqbollari: Monografiya. – T., 2020. – B. 500.

¹⁸ Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlarni organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSs) dis. – T., 2019. – B. 235.

¹⁹ Adinyayev S.I. Politika v sisteme pravoохранительных органов Российской Федерации: Avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. – M., 2013. – 32 s.

²⁰ Pavlovskiy V.V. Vzaimodeystviye obshchestva i politsii (militsiyi) v obespechenii pravoporyadka (teoreticheskiy i istoriko-pravovoy analiz): Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – Krasnodar, 2010 – 28 s.

²¹ Abdullayev U.I. Vnutrisistemniy kontrol v deyatelnosti organov vnutrennik del Respublik Tadzhikistan: Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2009 – 25 s.

²² Byalt V.S. Dissiplinarnaya otvetstvennost sotrudnikov organov vnutrennik del: Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2011 – 26 s.

²³ Sheglova YE.V. Sovershenstvoveniye otsenki effektivnosti slujebnoy deyatelnosti rukovoditelya slujebnoy deyatelnosti rukovoditelya organa vnutrennik del: Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2007 – 28 s.

²⁴ Aliullova R.R. Mexanizm upravleniya organami vnutrennik del (voprosi teorii, metodologii i praktiki): Avtoref. diss. ... dok-ra. yurid. nauk. – M., 2004 – 48 s.

²⁵ Sluchevskaya Y.A. Organizatsiya i osushestvleniye pravovogo kontrolya v sisteme upravleniya organami vnutrennik del: Avtoref. diss. ... dok-ra. yurid. nauk. – M., 2010 – 30 s.

²⁶ Kasyan V.Y. Otsenka organizatsii pravoохранительной деяности органов внутренних дел (вопросы методологии): Avtoref. diss. ... dok-ra. yurid. nauk. – M., 2007 – 25 s.

²⁷ Dralov V.V. Teoreticheskiye i organizatsionno-metodicheskiye voprosi sovershenstvovaniya pravovogo obespecheniya upravleniya organami vnutrennik del: Avtoref. diss. ... dok-ra. yurid. nauk. – M., 2001 – 28 s.

²⁸ Kazakov V.V. Osnovi upravleniya personalom organov vnutrennik del // Vestnik Nijegorodskoy akademii MVD Rossii, 2017, № 2 (38) – s. 95–98.

SIYOSAT

- boshqaruvning maqsadi va vazifalari bo'yicha;
- boshqaruvning funksiyalari bo'yicha;
- boshqaruvning elementlari bo'yicha;
- boshqaruvning prinsiplari bo'yicha;
- boshqaruvga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha.

Ijtimoiy boshqaruv faoliyati boshqaruv operatsiyalarini bajarish uchun insonlardan mehnat qilish va ruhiy kuch sarflashni talab etadi. Belgilangan tartibda va boshqaruv vositalaridan foydalangan holda bajariladigan boshqaruv mehnati u yoki bu boshqaruv harakatlarini amalga oshirish shaklida namoyon bo'ladi²⁹.

Boshqaruvning mazmuni uning maqsadlariiga bog'liq. Boshqaruv subyektlari dastlab muayyan maqsadlarni qo'yadilar, so'ngra ularga erishish uchun ongли ravishda harakat qiladilar, o'z harakatlarining ushbu maqsadlarga muvofiqligini nazorat etadilar. Demak, boshqaruv maqsadga muvofiq faoliyatdir. Boshqaruvda anglangan va asoslangan maqsadga ega bo'linmasa hamda u yoki bu ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga qaratilgan harakatlar bajarilmasa, muvaffaqiyat qozonishga umid qilib bo'lmaydi. Aynan maqsadlarni anglash va qo'yishda ijtimoiy boshqaruvning ijodiy imkoniyatlari namoyon bo'ladi¹. Boshqaruv aslida maqsadli faoliyat hisoblanadi. uning butun mohiyatiga oldinga qo'yilgan maqsadga ta'sir ko'rsatadi.

Maqsadlarni ilgari surish va ularga erishish boshqaruv samaradorligining mezonlari (ko'rsatkichlari) mavjud bo'lismeni taqozo etadi. Ijtimoiy boshqaruvning har qanday sohasida o'ziga xos maqsadlar hamda boshqaruv faoliyatini boshqarish mezonlari belgilanadi. Ular orqali maqsadga yaqinlashish darajasi aniqlanadi³⁰.

Boshqaruvning maqsadi uni aniqlashtirish vositasi bo'lmish vazifalarni belgilab beradi hamda tashkiliy tuzilmalarni yaratishning va ushbu sharoitda eng amaliy bo'lgan boshqaruv usullarini to'g'ri belgilashning shart-sharoiti bo'lib xizmat qiladi.

Boshqaruv tizimini yaratishda maqsadlarni belgilash hal qiluvchi o'rinn tutadi. Maqsadlarni insonlar real voqelikdan kelib chiqib belgilaydilar. Maqsad uni amalga oshirishning obyektiv imkoniyatlariiga, jamiyat rivojining qonuniyatlariga mos bo'lgan taqdirda to'g'ri belgilanadi. Boshqaruv subyekti maqsadlarni ularga erishishning mavjud imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirish, maqsadlarga erishish vositalarini tanlash imkoniyati mavjud doiralar bilan cheklanganligini inobatga olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

IIO boshqaruv tizimining maqsadi davlatning jamiyat oldidagi ijtimoiy-siyosiy vazifalari hamda IIO faoliyatining umumiyligi maqsadidan kelib chiqib, kuch va vositalarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasi ta'minlashga safarbar etishdan iborat.

IIO boshqaruv tizimining funksiyalari uning oldiga qo'yilgan maqsadga erishish va vazifalarning bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayrim adabiyotlarda istalayotgan pirovard natijaga erishish uchun ijtimoiy jarayonlarga maqsadli ta'sir ko'rsatishlar boshqaruvning funksiyalari hisoblanishi nazarda tutilgan³¹ hamda boshqaruvning umumiyligi funksiyalari sifatida hisobga olish, tahlil qilish, istiqbolni belgilash, rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish, nazorat qilish; boshqaruvning maxsus (asosiy) funksiyalari sifatida fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi va jamoat xavfsizligini, jamoat tartibi va mulkning muhofaza etilishini ta'minlash; jinoyatlar va ma'muriy huquqbazarliklarning oldini olish va ularni bartaraf etishga, jinoyatlarni ochishga qaratilgan choralarini amalga oshirish, boshqaruvning ta'minlovchi funksiyalariga kadrlar, moddiy-texnikaviy (xo'jalik), moliyaviy ta'minot, ish yuritish kabi funksiyalar kiradi deb ta'kidlangan. Yana bir muallif M.Z.Ziyodullayev ham IIO tayanch punktlarini boshqarishni ta'minlashni huquqiy, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik, kadrlar bilan ta'minlash hamda hamkorlikni ta'minlashga tasniflagan holda tahlil qilgan³².

²⁹ Boshqaruv dasrlik.

³⁰ Boshqaruv daslik.

³¹ Pulatov Y.S., Ismailov I.U., Qurbonov A. Ichki ishlар organlarida boshqaruv asoslari: O'zbekiston Respublikasi IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – T., 2005. B. – 21.

³² Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlар organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSs) dis. avtoref – T., 2019. – B. 18 – 19.

Biz ham yuqoridagi fikrlarga qo'shilamiz va shu bilan birga IIO boshqaruv tizimining funksiyalariga IIOning amaliy faoliyatidan kelib chiqib yondashish lozim deb hisoblaymiz. Xususan, IIO tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida IIO zimmasiga yangi vazifalar yuklanishi IIO boshqaruv tizimining yangi funksiyalari vujudga kelishiga sabab bo'lganini qayd etish joiz.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonunining 2-moddasiga ko'ra IIOning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, 4-moddasida faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri ham fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ekanligi, 8-moddasida esa IIO faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri ham fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioxha etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish prinsipi ekanligi, 16-moddasida IIOning majburiyatlaridan biri fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida barcha zarur choralarini ko'rish ekanligi, 17-moddasida esa IIOning huquqlaridan biri fuqarolardan qonun hujjatlariga rioxha etishni, g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni tugatishni talab qilish, bu talablar bajarilmagan taqdirda esa majburlov choralarini qo'llash ekanligi belgilab qo'yilishi, shuningdek xalq bilan tizimli muloqot qilish kabilarning belgilanishi, IIO huquq ijodkorligi faoliyatining takomillashuvi, huquqburzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni ilmiy yondashuvlar asosida tashkil etishning nazarda utilishi, IIO rahbarlarining xalq vakillari oldida, profilaktika inspektorlarining esa bevosita xalq oldida hisobdorligi mexanizmining joriy etilishi o'z navbatida IIO boshqaruv tizimining yangi funksiyalari: inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash va ta'minlash; xalq bilan muloqot qilish; o'z faoliyatini ilmiy yondashuvlar asosida tashkil etish, IIO rahbarlarining xalq va vakillari oldida bevosita hisobdorligini vujudga keltirganligini qayd etish lozim. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, hatto ayrim mualliflar tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga oilalardagi kambag'allikni bartaraf etishda IIOning vazifalari haqida so'z yuritmoqda³³.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ham «Harakatlar strategiyasida: «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak», degan prinsip davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangani, albatta, bejiz emas.

Hozirgi kunda barcha bo'g'indagi hokimlar, vazirlik va idoralar, prokuratura, sud-huquq va IIO rahbarlari, deputat va senatorlar bevosita joylarga chiqib, o'z faoliyati bo'yicha xalq oldida hisobot bermoqda.

Mahallama-mahalla, uyma-uy yurib, odamlarning hayotiy muammolarini o'rganmoqda, ularni qonuniy asosda hal qilish uchun amaliy yordam ko'rsatmoqda»³⁴ – deb, ta'kidlagan edi.

Bugungi kunda ko'pchilik tomonidan IIO boshqaruv tizimining elementlari boshqaruv subyekti, boshqaruv obyekti, to'g'ri ta'sir etish kanali, teskari ta'sir kanalidan iborat ekanligi to'g'risidagi tezis va xulosalar nisbatan ko'p uchraydi³⁵.

Bizning fikrimizcha, IIO boshqaruv tizimining yana bir muhim elementi boshqaruv predmetini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Nega deganda, boshqaruvga oid boshqa adabiyotlarda boshqaruv predmeti haqida ham so'z yuritiladi va u boshqaruvning asosiy elementlaridan biri sifatida ko'rildi. Bunda IIOning boshqaruv subyektining maqsadli faoliyati qaysi ijtimoiy munosabatlarga qaratilsa ular ichki ishlar organlari boshqaruv tizimining predmeti deb hisoblanishi lozim.

Shu bilan birga tahlillarimiz IIO boshqaruv tizimining predmeti boshqaruv subyektiga ta'sir etishini, bunda muayyan holatlarda boshqaruv predmeti boshqaruv subyektiga nisbatan birlamchi xususiyat kasb etishi mumkinligi ko'rsatmoqda. Xususan, mamlakatimizga turistlarni jalb etish, ularning xavfsizligini ta'minlash zarurati nuqtai nazaridan 2017 yil 23 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Buxoro, Samarkand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» 939-son qarori asosida Buxoro, Samarkand,

³³ Jabbarov Z.Q.Ayrim oilalardagi kambag'allikni bartaraf etish yuzasidan ichki ishlar organlari oldida turgan vazifalar // Ichki ishlar organlarida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash mexanizmi: bugungi holati va istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari (2020 yil 4 mart). – T., 2020. – B. 534–537.

³⁴ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi // URL: <http://xs.uz> (Xalq so'zi, 01.09.2017).

³⁵ A.V.Jaglin. Sistema upravleniya organov vnutrennix del: obshaya xarakteristika.

SIYOSAT

Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari IIBlari tarkibida Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmalari tashkil etildi. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish, shahar va qishloqlarimizning sayyohlik jozibadorligini oshirish maqsadida Ichki ishlar vazirligi tarkibida xavfsiz turizmni tashkil etish bo'linmalari faoliyatini yo'lga qo'yganimiz ham muhim qadam bo'ldi³⁶.

Shuningdek, mamlakatimiz tarixida ilk bor faqat ayol xodimlar ishlaydigan xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor lavozimlari joriy etilishi ham xotin-qizlar o'tasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish zaruratiga borib taqaladi.

Amaldagi qonun hujjatlari hamda IIOning faoliyati tahlili asosida IIO boshqaruv tizimining subyekti va predmeti adabiyotlarda nazarda tutilganidan ko'ra kengroq ekanligini to'g'risida xulosaga kelindi. Jumladan, IIO boshqaruv tizimining subyektlari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, hududiy vakillik organlarini, shuningdek, IIO boshqaruv tizimining obyektlariga esa boshqa davlat organlari, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar ham kiradi³⁷.

IIO boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi omillardan biri – bu boshqaruvning prinsiplari hisoblanadi. Ma'lumki, prinsip tegishli faoliyatni amalga oshirishda doimiy ravishda rioya etilishi kerak bo'lgan rahbariy qoida hisoblanadi³⁸. Ijtimoiy boshqaruv prinsiplari deganda, boshqaruvda rioya etiladigan g'oyalar, asosiy qoidalari tushuniladi. Prinsiplar ijtimoiy rivojlanish qonunlarining obyektivligini, ijtimoiy boshqaruv amaliyotining o'ziga xos jihatlarini sintez qiladi va aks ettiradi. Ular boshqaruvning butun tizimiga – maqsadlari, usullari, tuzilishi, kadrlar va jarayoniga – ta'sir ko'rsatadi. Ularda boshqaruv tizimini tashkil etishga hamda boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish usullariga qo'yiladigan asosiy talablar, ijtimoiy boshqaruv subyektlari va obyektlari o'rtaidagi o'zaro munosabatlarning maqsadli xususiyati o'z aksini topadi³⁹.

Y.S.Pulatov, I.U.Ismailov, A.Qurbanovlar IIoda boshqaruvning prinsiplari sifatida obyektivlik, aniqlik, markazlashuv va nomarkazlashuvning uyg'unlashtirilishi, qonuniylik va intizomni nazarda tutishadi⁴⁰. A.V.Jaglin esa IIOning boshqaruv tizimining prinsiplari sifatida yaxlitlilik, har tomonlamalik, tizimli aloqa, subordinatsiya, maqbullikni nazarda tutadi⁴¹.

Bizning fikrimizcha esa yuqoridagilar bilan birga IIO boshqaruv tizimining prinsiplari sifatida IIO tizimida olib borilgan islohotlar hamda IIO oldiga qo'yilayotgan vazifalar va zamon talablaridan kelib chiqib quydagi qurʼani nazarda tutish lozim:

qonuniylik; maqsadga muvofiqlik; maqbullik; shaxs huquq va erkinliklarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; yakka boshchilik; hamkorlik; ilmiy va amaliy asoslanganlik; axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish.

IIO boshqaruv tizimining o'ziga xosliklari haqida so'z yuritilganda unga ta'sir etuvchi tashqi omillarni nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Xusan, V.V. Pavlovskiy IIO boshqaruv tizimiga jamiyatda yuz berayotgan kriminal hodisalar bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi 1. Bizning nazarimizda, muallifning mazkur fikrini quydagi shaklda aniqlashtirish va to'ldirish lozim, ya'ni IIOning boshqaruv tizimiga kriminogen vaziyat, tezkor vaziyat, huquqbuzarliklar dinamikasi va ularning sifat ko'rsatkichi, ijtimoiy-siyosiy muhit va vaziyat, tabiat hodisalari, texnogen hodisalar, shov-shuvga sabab bo'ladigan jinoyat va hodisalar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

IIO boshqaruv tizimini quydagi rakurslarda ko'rib chiqish mumkin:

ijtimoiy boshqaruvning bir turi;
huquq-tartibot va huquqni muhofaza qilishning tarkibiy qismi;
davlatning ma'muriy-siyosiy faoliyatining shakllaridan biri.

³⁶ Shavkat Mirziyoyevning ichki ishlar xodimlarini kasb bayrami munosabati bilan bayram tabrigi (2020 yil 25 oktabr)

³⁷ Izoh: «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonuning 10-moddasida IIO xodimi qonuniy talablarini bajarilishining majburiyligi belgilangan bo'lib, unga ko'ra IIO xodimining o'z vakolatlari doirasida qo'yilgan qonuniy talablarini barcha davlat organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir. IIO xodimining qonuniy talablarini ustidan shikoyat qilinishi ularning bajarilishini to'xtatib turmaydi.

³⁸Muxamedov O'.X. O'zbekistonda xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish istiqbollari: Monografiya. – T., 2020. – B. 15.

³⁹Pulatov Y.S., Ismailov I.U., Qurbanov A. Ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari: O'zbekiston Respublikasi IV oliv ta'lim muassasalari uchun darslik. – T., 2005. B. – B.28

⁴⁰O'sha manba. B.27–33.

⁴¹A.V.Jaglin. Sistema upravleniya organov vnutrennix del: obshaya xarakteristika.

Yuqorida bildirilgan taklif-tavsiyalar ichki ishlar organlarining kundalik faoliyatini tashkil etishdagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etishga, kuch va vositalar boshqaruvining yetarli darajada muvofiqlashmaganligi, shaxsiy tarkib bilan tarbiyaviy ishlar va ularning kasb mahorati, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning maqsadli nazorat-tahlilini ta'minlash holatining past darajadaligi kabi salbiy holatlarga barham berishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muxamedov O'.X. O'zbekistonda xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish istiqbollari: Monografiya. – T., 2020. – B. 500.
2. Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSs) dis. – T., 2019. – B. 235.
3. Adinyayev S.I. Politsiya v sisteme pravooxranitelinx organov Rossiyskoy Federatsii: Avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. – M., 2013. – 32 s.
4. Pavlovskiy V.V. Vzaimodeystviye obshestva i politsii (militsii) v obespechenii pravoporyadka (teoreticheskiy i istoriko-pravovoy analiz): Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – Krasnodar, 2010 – 28 s.
5. Abdullayev U.I. Vnitristsistemniy kontrol v deyatelnosti organov vnutrennik del Respublikni Tadzhikistan: Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2009 – 25 s.
6. Byalt V.S. Dissiplinarnaya otvetstvennost sotrudnikov organov vnutrennik del: Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2011 – 26 s.
7. Sheglova YE.V. Sovershenstvoeniye otsenki effektivnosti slujebnoy deyatelnosti rukovoditelya slujebnoy deyatelnosti rukovoditelya organa vnutrennik del: Avtoref. diss. ... kand. yurid. nauk. – M., 2007 – 28 s.
8. Aliullov R.R. Mexanizm upravleniya organami vnutrennik del (voprosi teorii, metodologii i praktiki): Avtoref. diss. ... dok-ra. yurid. nauk. – M., 2004 – 48 s.
9. Sluchevskaya Y.A. Organizatsiya i osushestvleniye pravovogo kontrolya v sisteme upravleniya organami vnutrennik del: Avtoref. diss. ... dok-ra. yurid. nauk. – M., 2010 – 30 s.
10. Kasyan V.Y. Otsenka organizatsii pravooxranitelnoy deyatelnosti organov vnutrennik del (voprosi metodologii): Avtoref. diss. ... dok-ra. yurid. nauk. – M., 2007 – 25 s.
11. Dralov V.V. Teoreticheskiye i organizatsionno-metodicheskiye voprosi sovershenstvovaniya pravovogo obespecheniya upravleniya organami vnutrennik del: Avtoref. diss. ... dok-ra. yurid. nauk. – M., 2001 – 28 s.
12. Kazakov V.V. Osnovi upravleniya personalom organov vnutrennik del // Vestnik Nijegorodskoy akademii MVD Rossii, 2017, № 2 (38) – s. 95–98.
13. Boshqaruv dasrlik.
14. Boshqaruv daslik.
15. Pulatov Y.S., Ismailov I.U., Qurbonov A. Ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari: O'zbekiston Respublikasi IIV oliy ta'lif muassasalari uchun darslik. – T., 2005. B. – 21.
16. Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSs) dis. avtoref – T., 2019. – B. 18 – 19.
17. Jabbarov Z.Q. Ayrim oilalardagi kambag'allikni bartaraf etish yuzasidan ichki ishlar organlari oldida turgan vazifalar // Ichki ishlar organlarida normativ-huquqiy hujjalalar ijrosini ta'minlash mexanizmi: bugungi holati va istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari (2020 yil 4 mart). – T., 2020. – B. 534–537.
18. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi // URL: <http://xs.uz> (Xalq so'zi, 01.09.2017).
19. A.V. Jaglin. Sistema upravleniya organov vnutrennik del: obshaya xarakteristika.
20. Shavkat Mirziyoyevning ichki ishlar xodimlarini kasb bayrami munosabati bilan bayram tabrigi (2020 yil 25 oktabr) Izoh: «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonunining 10-moddasida IIO xodimi qonuniy talablari bajarilishining majburiyligi belgilangan bo'lib, unga ko'ra IIO xodimining o'z vakolatlari doirasida qo'yilgan qonuniy talablarini barcha davlat organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir. IIO xodimining qonuniy talablari ustidan shikoyat qilinishi ularning bajarilishini to'xtatib turmaydi.
21. Muxamedov O'.X. O'zbekistonda xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish istiqbollari: Monografiya. – T., 2020. – B. 15.
22. Pulatov Y.S., Ismailov I.U., Qurbonov A. Ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari: O'zbekiston Respublikasi IIV oliy ta'lif muassasalari uchun darslik. – T., 2005. B. – B.28
23. O'sha manba. B.27–33.
24. A.V. Jaglin. Sistema upravleniya organov vnutrennik del: obshaya xarakteristika.